

XULOSA

8 noyabr 2021 yil

Namangan shahri

Men, "Namangansuvqurilishinvest" DM huquqshunosi R.Sattarov, "Buyurtmachi" "Namangansuvqurilishinvest" DM va "Pudratchi" "Popmaxsussuvpudrat" mas'uliyati cheklangan jamiyati o'rtasida pudrat ishlarini amalga oshirish uchun 2021 yil 8 noyabrda tuzilgan 11-sonli pudrat shartnomasi loyihasini huquqiy holatini ko'rib chiqib, quyidagilarni guvohi bo'ldim.

Shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasi xududida hozirda amalga bo'lgan qonunlarga asosan tuzilgan bo'lib, shartnoma "Namangan shahrida Shimoliy Farg'ona magistral kanalining PK440+45 dan PK 453+50 gacha bo'lgan qismining qirg'oqlarini obodonlashtirish" ob'ekti qurilishini amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Shartnoma bo'yicha bajariladigan ishlar umumiy qiymati QQS bilan – 12 470 965 749,66 so'm.

Shartnoma loyihasi shartlari O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 353, 357, 359, 364, 366-moddalari hamda "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining huquqiy bazalari to'g'risida"gi qonun hujjatlari asosida tuzilgan bo'lib, uning 21-moddasiga asosan quyidagicha xulosalandi.

XULOSA

2021 yil 8 noyabrdagi 11-sonli pudrat shartnomasi "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining huquqiy bazalari to'g'risida"gi qonun hujjatlariga muvofiq tuzilganligi, taraflar manfaatlariga mos kelgani hamda ijobiy bo'lgani uchun, imzolashga tavsiya etaman.

"Namangansuvqurilishinvest"
DM huquqshunosi:



R.Sattarov

Шартномани ҳуқуқий экспертизадан ўтказиш тўғрисида

ХУЛОСА

Мен «Попмахсуссупудрат» МЧЖ ҳуқуқшуноси З.Абдулҳамидов буюртмачи «Намангансувқурилишинвест» ДМ ва пудратчи «Попмахсуссупудрат» МЧЖ ўртасидаги 2021 йил 8 ноябрь куни тузилган №11-сонли 12470965749,66 (ўн икки миллиард тўрт юз етмиш миллион тўққиз юз олтмиш беш минг етти юз қирқ тўққиз 66 тийин) сўм қийматидаги Наманган вилояти Наманган шаҳридаги Шимолий Фарғона каналининг ПК440+5 дан ПК453+50 гача бўлган қимининг қирғоқларини ободонлаштириш пудрат ишларини бажариш тўғрисидаги шартномани ҳуқуқий экспертизадан ўтказдим.

Ҳуқуқий экспертизадан ўтказишда Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик Кодекси, «Хўжалик юритувчи субъектларнинг шартномавий ҳуқуқий базаси тўғрисида»ги Қонуни ҳамда бошқа норматив-ҳуқуқий ҳужжатларга асосландим.

Ҳуқуқий экспертизадан ўтказишда қуйидагиларни аниқладим:

1. «Попмахсуссупудрат» МЧЖ номидан директори Б.Рахимов ҳамда иккинчи томондан «Намангансувқурилишинвест» ДМ директори А.Ғаниев шартнома тузиш ва имзолаш ҳуқуқига эга.
2. Тарафлар 2021 йил 8 ноябр кунги №11-сонли пудрат шартномаси мазмуни билан танишган.
3. Тарафлар ўртасида 2021 йил 8 ноябр куни тузилган №11-сонли пудрат шартномаси Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодекси, Хўжалик юритувчи субъектларнинг шартномавий ҳуқуқий базаси тўғрисида» ги қонунин нормалари талабларига жавоб беради.

Хулоса: Тарафлар 2021 йил 8 ноябр кунги №11-сонли пудрат шартномасини имзолашлари мумкин.

«Попмахсуссупудрат» МЧЖ
ҳуқуқшуноси:



З.Абдулҳамидов